

---

## Sektor rahbarlari va yoshlar uchrashuvi bo'lib o'tdi

Buvayda tumani Pedagogika kollejida "Sektor rahbarlari va yoshlar uchrashuvi" bo'lib o'tdi. Uchrashuvda Tuman prokurori 2-sektor rahbari Z.Sulaymonov, Tuman IIB boshlig'i 3-sektor rahbari R.Hayitov, Tuman DSI boshlig'i 4-sektor rahbari T.Arzimatov hamda Tuman hokimi o'rinbosari G'.Mamajonov va yoshlar yetakchilari, probatsiya va profilaktik hisobda turuvchi yoshlar ishtirok etdilar.

Uchrashuvda so'z olgan sektor rahbarlari, tuman hokim o'rinbosari bugungi kunda Yoshlarga yaratib berilayotgan keng imkoniyatlar, shart-sharoitlar haqida to'xtalib o'tdi. Uchrashuv ochiq va samimiy suhbat tarzida o'tkazildi. Yoshlar o'zlarini qiziqtirgan ko'plab savollariga javob oldilar. Bunday uchrashuvlar hududlarda davom etmoqda.

2023-09-12 05:05:53